

“YASHIRIN IQTISODIYOT” NING O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI IQTISODIY FAOLIYATIGA TA’SIRI VA UNGA QARSHI KURASHISH MASALALARI

Abzalov Miraziz Mirgiyazovich

O’zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi

huzuridagi Bojxona Qo’mitasi xodimi

Ilmiy rahbar: **Achilov Alisher Temirovich**

O’zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

Jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasi dotsenti,

yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD),

e-mail:achilov1976@mail.ru

Globalizatsiya jarayonlarining kuchayib borishi sharoitida, mamlakatning xalqaro maydonda o’z o’rnini egallashi birinchi navbatda xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi ishtirokiga bog’liq. Mustaqillikning ilk yillardan mamlakatimizda iqtisodiyot sohasini, xususan tashqi iqtisodiy faoliyat sohasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda.

O’zbekistonda keyingi yillarda barqaror iqtisodiy o’sish sur’atlari ta’minlanmoqda va hukumat tomonidan uni mustahkamlash borasida yangi ustuvor vazifalar belgilandi. Davlat rahbari boshchiligidagi olib borilayotgan oqilona va puxta o’ylangan siyosat iqtisodiy munobatlarni yanada rivoj topib borishiga sabab bo’lmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganidek, “makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o’sishning yuqori sur’atlarini saqlab qolish eng muhim ustuvor vazifamizdir”³⁸.

O’zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning zamonaviy sharoitlari murakkab tashqi siyosat va iqtisodiy vaziyat bilan ajralib turadi, bu esa, o’z navbatida, o’zgarishlar zarurligini talab qiladi. Masalan, diversifikatsiya va import o’rnini bosishga o’tish maqsadida iqtisodiyotning strategik muhim sohalarini rivojlantirish zaruriyatini hisobga olib, ishbilarmon doiralarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlashning tegishli mexanizmlari mavjud davlat xavfsizlik tizimini mustahkamlash, shuningdek, davlat va xususiy investitsiyalarni jalb qilish va himoya qilish uchun shart-sharoit yaratish zarur.

Bundan tashqari, ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun tashqi tahdidlardan tashqari, davlat ichida korrupsiya, firibgarlik, bozorning vijdonsiz ishtirokchilari, biznesni tortib olish yoki tugatish, iqtisodiy zarar, ko’plab

³⁸ Mirzyoev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak”. – Toshkent: O’zbekiston. 2017 y.- 8-bet

korruptionerlar va firibgarlarning paydo bo'lishi va boshqa salbiy ijtimoiy hodisalar kabi xavfli xatarlar mavjud.

Bugungi kunda, ilmiy adabiyotlarda yashirin iqtisodiyot hodisasi juda ko'p ta'riflanadi. Bu ijtimoiy-iqtisodiy hodisaning noaniqligini va ayni paytda uning norasmiy maqomini ko'rsatuvchi turli nomlar ostida ko'plab nashrlarda paydo bo'ladi. Eng keng tarqalgan ta'riflar quyidagilardan iborat: "hufyona (shadow) iqtisodiyot", "yashirin (hidden) iqtisodiyot", "parallel iqtisodiyot", "er osti (underground) iqtisodiyoti", "qora (black) bozor", "kulrang iqtisodiyot", "norasmiy (informal) iqtisodiyot", "noqonuniy (illegal) iqtisodiyot", "jinoiy (criminal) iqtisodiyot", "tartibsiz (irregular) iqtisodiyot" va h.k. Bu sinonimlarga "iqtisodiyotning yashirin komponenti", "hufiyona dunyo", "yashirin hodisalari", "yashirin sektori", "hufiyona operatsiyalari" va "hufiyona ishi" tushunchalari kiradi.³⁹

XX va XXI asrlarda "yashirin iqtisodiyot" butun jahon hamjamiyatining eng o'tkir muammolaridan biriga aylandi. Uning gullab-yashnashining asosiy sababi eng chuqur inqiroz sharoitida iqtisodiy islohotlar va bozor iqtisodiyotiga asoslangan davlat tomonidan tartibga solish mexanizmidagi mavjud nuqsonlar bilan bog'liq. Bu esa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning "yashirin hayotga" qisman yoki to'liq o'tib olish, iqtisodiyotning norasmiy sektorining rivojlanishiga yordam berdi. Tahlillar natijasida ko'pgina rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar zamonaviy moliyaviy tizimning rivojlanishiga va xavfsizligiga "yashirin iqtisodiyot", "korrupsiya", "kapitalning xorijga oqimi" va "soliqlarni noqonuniy minimallashtirish uchun ofshorlardan foydalanish" kabi holatlar salbiy ta'sir etayotganligini ko'rsatmoqda.

Dunyo olimlari tадqiqotlari davomida amalga oshirilgan hisob-kitoblari har yili 20-25 milliard dollar kapitalning xorijga oqimi sodir bo'lishini, mamlakatlar soliq qonunchiligidagi nomutanosiblik hisobiga yalpi ichki mahsulotning 2,5 foizi miqdori yo'qotilishi va barcha darajadagi mansabdorlarga berilgan pora miqdori bitimlarning 10 foizgachasini tashkil etishini tasdiqlagan⁴⁰.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, "yashirin iqtisodiyot" O'zbekistonning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jarayonlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, iqtisodiyotning normal faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan norasmiy sektorining yana bir muhim jihatni mamlakatda noqonuniy eksport va import tufayli kengayib borayotgan kontrabandaning tarqalishidir. Bu esa, o'z navbatida, yashirin bozorning mavjudligi tufayli

³⁹М.Головка. Теневая экономика в системе угроз национальной экономической безопасности: факторы, эволюция, направления противодействия. Диссертатсия на соискание ученой степени доктора экономических наук. Санкт-Петербург, 2019. 109-бет.

⁴⁰А.А. Симанович. Институциональные корни коррупции// Безопасность бизнеса. 2009. № 3. С. 30–31

davlat iqtisodiyoti salmoqli miqdordagi pul mablag'larini yo'qotishini e'tiborga olmasdan har qanday shaxs daromad qilishni nazarda tutuvchi oddiy fuqarolarning yashash sharoitini yomonlashtiradigan yopiq muhitni yaratadi.

Yangi iqtisodiy sharoitlarda jinoyatchilar o'zlarining g'arazli maqsadlarini amalga oshirish uchun ko'proq daromad keltiruvchi yo'nalishlarga o'zlarini urmoqdalar. Jumladan, respublikamiz hududidan strategik ahamiyatga ega bo'lgan - rangli metall, spirt, neft mahsulotlari kabi tovarlarni noqonuniy olib chiqib, respublikamiz hududiga noqonuniy yo'llar bilan bojxona to'lovlarini to'lashdan bo'yin tovlab, ko'proq aksiz solig'iga oid tovarlarni olib kirmoqdalar. Ushbu jinoyatlar bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarning ko'lami millionlar bilan hisoblanib, xorijiy banklarda valyuta mablag'lari qolib ketmoqda, chet ellik ishlab chiqaruvchilarning foydasi uchun ishlab, uyushgan jinoyatchilikni moliyalashtirishga xizmat qilmoqda.

Tashqi savdo sohasida kriminal operatsiyalar quyidagi asosiy huquqbazarliklar bilan bog'liq:

- bojxona rejimlari talablarini qasddan buzish;
- valyuta tushumlarini repatriatsiya qilmaslik;
- deklaratsiya qilmasdan yoki noto'g'ri deklaratsiya qilgan holda tovarlarni olib kirish;
- respublikamiz hududidan tovarlar va transport vositalarini olib chiqmaslik yoki qaytarmaslik;
- bojxona rasmiylashtiruvi tugamagan tovar va transport vositalariga egalik qilish yoki bojxona organlarining ruxsatini olmasdan, ular bilan boshqa operatsiyalarni amalga oshirish.

TIF sohasida jinoyatchilikka oid statistika ma'lumotlariga ko'ra, oxirgi vaqtarda jinoyatchilar, ko'proq, bojxona qiymatini pasaytirish, TIF TN kodlarini va ishlab chiqaruvchi davlatlarni qasddan almashtirish, preferensiya tizimini asossiz qo'llash kabi usullarni ishlatmoqdalar.

Ta'kidlab o'tilganlardan TIF bilan bog'liq bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlarini yashirin iqtisodiyotning tarkibiy qismi deb hisoblashimiz mumkin. Globallashuv va tashqi iqtisodiy munosabatlarning tobora rivojlanib borayotganligi sharoitida ushbu sohadagi huquqbazarlik holatlarining ko'payib borishi kuzatilmoqda.

Jumladan, bojxona organlari tomonidan 2023 yilda huquqbazarliklarga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida **21968 ta** (2022 yilda 17026 ta) huquqbazarliklar aniqlanib, ular bo'yicha **972,8 mln** so'mlik (826,9 mln) tovarlar ushlab qolingan.

Aniqlangan huquqbazarliklar tarkibini tahlil qilish asosida bugungi

kunda tashqi iqtisodiy faoliyatning kriminallashuvida “yashirin iqtisodiyot”ning bir qator salbiy ta’sirlarini ko’rsatib o’tishimiz mumkin.

Xususan, norasmiy import va eksport tovarlari orasida kontrabanda ashylari mavjud bo’lib, noqonuniy bozorlarda yashirinchalik sotiladigan tovarlarga kontrabanda ashylari hisoblanmish giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, qurol-yarog’, o’q-dorilar va boshqalar kiradi. Ma’lumki, ularning noqonuniy aylanuvi jamoat xavfsizligi va aholi salomatligiga ham jiddiy tahdid hisoblanadi.

Kontrabanda ashylaridan tashqari noqonuniy harakati davlatning milliy iqtisodiy xavfsizligiga tahdid soladigan strategik muhim tovarlar (masalan: neft, spirit mahsulotlari, rangli metal va boshqalar) qimmatbaho toshlar va metallar, madaniy boyliklar va intellektual mulk kabi yuqori daromadli mahsulotlar toifasi ham mavjud.

Hozirgi kunda ham davlat, ham jahon xo’jaligi tizimida tashqi iqtisodiy aloqalarning yuqori ahamiyati turli omillar bilan bog’liq bo’lib, ularning asosiyalaridan biri tashqi iqtisodiy faoliyatning zamonaviy dunyoda iqtisodiyot, siyosat, xavfsizlik va ijtimoiy sohaning rivojlanayotgan tarmoqlarining ko’pchiligidagi ta’siri hisoblanadi. Shu sababli, tashqi iqtisodiy faoliyatga qarshi jinoiy tajovuzlar yuqoridaqgi rivojlanish tarmoqlari uchun salbiy oqibatlarga olib keladi.

Shuningdek, soxta shartnomalar, hujjatli kontrabanda yoki “yolg’on” tranzit orqali keltirilgan tovarlarning buxgalteriyada kirim kilinmasligi, importda kreditor qarzdorlikning nazorat qilinmasligi yashirin iqtisodiyotni shakllanishiga va import hajmining sun’iy oshishiga sabab bo’lmoqda.

Olib borilgan tadqiqotlar natijalariga asosan, tashqi iqtisodiy faoliyat - iqtisodiyotning muhim va ajralmas tarmog’i deb xulosa qilishimiz mumkin. Shu bilan birga, keng sohalarni o’zida mujassam etadi. Ushbu tarmoqda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarning legallashtirilishi tadbirkorlar va ishbilarmonlarni o’ziga jalb etadi. Bu orqali TIF sohasidagi munosabatlarga ziyon yetkazilishini inobatga olib, ushbu faoliyatni jinoiy-huquqiy himoya qilish ob’ekti deb qaralishi va muhofaza qilinishi lozim deb hisoblaymiz.

Shu o’rinda ta’kidlash lozimki, iqtisodiyotni va TIF sohasini rivojlantirishda yalpi ichki mahsulot tarkibida “yashirin iqtisodiyot”ning ulushini qisqartirish muhim ahamiyatga ega.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga yo’llagan murojaatnomalarida 2020 yil va keyingi yillarda iqtisodiyot sohasida amalga oshirish zarur bo’lgan dasturiy va maqsadli vazifalar birinchi ustuvor yo’nalishida to’xtalib “Islohotlarimizga jiddiy to’sqinlik qilayotgan

“yashirin iqtisodiyot”ga barham berilmas ekan, sog’lom raqobat ham, qulay investitsiya muhiti ham shakllanmaydi”, deb bejiz ta’kidlamaganlar⁴¹.

Iqtisodiyotda xufiyona aylanmani yanada qisqartirish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 20 iyundagi “O’zbekiston Respublikasida «Yashirin iqtisodiyot» ulushini qisqartirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi 394-sonli Qarori bilan quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni nazarda tutuvchi «Yashirin iqtisodiyot» ulushini qisqartirish chora-tadbirlarini amalga oshirish bo‘yicha «yo‘l xaritasi» tasdiqlandi⁴². Xususan:

- iqtisodiyotda hufyona aylanmani qisqartirishga qaratilgan tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish;
- iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va markirovkalash;
- iqtisodiyotda naqdpuhsiz hisob-kitoblar hajmini oshirish;
- bank xizmatlarining ommabopligrini oshirish;
- «yashirin iqtisodiyot» sub’ektlarini aniqlash mexanizmlarini takomillashtirish;
- tashqi savdoda «yashirin iqtisodiyot» ulushini qisqartirish bo‘yicha samarali tizimni joriy etish;
- «yashirin iqtisodiyot» ulushini qisqartirish bo‘yicha keng targ’ibot-tashviqot ishlarini tashkil qilish.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, bugungi kunda iqtisodiy munosabatlar globallashuvi sharoitida tashqi iqtisodiy faoliyatni kriminallashuvi O’zbekistonning rivojlanishiga eng jiddiy tahdid bo‘lib kelmoqda, bu mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta’minalash vazifasini murakkablashtirmoqda. Yuzaga kelgan jinoiy va kriminologik sharoitlarda tashqi iqtisodiy faoliyatga «yashirin iqtisodiyot»ning ta’siri natijasida nafaqat iqtisodiyotda halokatli o‘zgarishlar tahdidini keltirib chiqaradi, balki O’zbekistonning milliy xavfsizligiga ham tahdid hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA AXBOROT-RESURS MANBALARI:

1. O’zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi,
<https://www.lex.uz/docs/111453>
2. O’zbekiston Respublikasi azirlar Mahkamasining 2020 yil 20 iyundagi “O’zbekiston Respublikasida «Yashirin iqtisodiyot» ulushini qisqartirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi 394-sonli Qarori. <https://lex.uz/ru/docs/4864136>

⁴¹ <https://aza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>

⁴² O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 20 iyundagi “O’zbekiston Respublikasida «Yashirin iqtisodiyot» ulushini qisqartirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi 394-sonli Qarori. <https://lex.uz/ru/docs/4864136>

3. Mirzyoev Sh.M. "Taqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". – Toshkent: O'zbekiston. 2017 y
4. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2017
5. Achilov A.T. va boshqalar. Yashirin iqtisodiyot // O'quv qo'llanma -- Toshkent: BI, 2020 y.